

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARINING
TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH
YO'LLARI**

Xushieva Gavxar Mamatkarimovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkiloti direktorlarining menedjerlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar o'z aksini topgan. Unda mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarish yo'llari va ularning samaradorligi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan va tahlil etilgan.

Tayanch iboralar: Maktabgacha ta'lism, tarbiya, pedagogika, ta'lism, MTT, direktorlik faoliyati, boshqaruv ko'nikmalari, menedjerlik kompetensiyasi, rivojlantirish, takomillashtirish, reja, predmet, tamoyil, metod, rag'bat.

Annotatsiya: V dannoy state otrajenyi voprosyi, svyazannye s sovershenstvovaniem protsessov razvitiya upravlencheskoy kompetentnosti rukovoditeley organizatsiy doshkolnogo obrazovaniya. Izuchenы i proanalizirovany sposoby organizatsii i upravleniya etim protsessom i voprosyi, svyazannye s ix effektivnostyu.

Klyuchevыe slova: doshkolnoe obrazovanie, vospitanie, pedagogika, obrazovanie, MTT, direktorskaya deyatelnost, upravlencheskie navыki, upravlencheskaya kompetentnost, razvitiye, sovershenstvovanie, plan, predmet, prinsip, metod, stimul.

Abstract: This article reflects the issues related to the improvement of managerial competence development processes of directors of preschool education organizations. It studied and analyzed the ways of organization and management of this process and issues related to their effectiveness.

Key words: preschool education, upbringing, pedagogy, education, MTT, director's activity, management skills, managerial competence, development, improvement, plan, subject, principle, method, incentive.

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi uzlusiz ta'lism tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lism - tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lism sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lism-tarbiya jarayoniga samarali ta'lism va tarbiya shakllari

hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirishga ehtiyoj rtib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb etish, MTT zamonaviy tusga kiritish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. MTT faoliyatini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limidan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirishga erishish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq [1]: Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash assosida amalga oshirilishi lozim. Bunda, bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi haqida aytib o'tilgan [2]. Mana shu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi sifatida blgilangan. Xalqimizning kelajagi, yangi O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, uning saviyasi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan yondashuviga bog'liq. Eng zamonaviy sharoitlarga ega bo'lgan ta'lim tashkilotlarida bolalarga puxta bilimlar berish va ularning kognitivligini va qiziqishlarini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etilmoqda. Bilishga qiziqish muammosi – haqiqiy pedagogik ilm zarurligini isbotlaydi. Ushbu muammoning nazariy ishlanmalari va uning amaliyoti ta'limni amalga oshirishdir. Bu qiziqishni rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. Qiziqish – bolalarni yangi izlanishga, bilishga undaydi. Bilim, yangi ko'nikmalar, yangi yo'llar, usullar esa bollarni ko'proq ijtimoiy faol, jismonan baquvvat va qat'iyatli bo'lishga undaydi. Bolalardagi qiziqishni rivojlantirish uchun ularga mativ bo'ladi va bilimlarni chuqurlashtirish, sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda bilimga qiziqishini oshirish, ularning hohish-istagida va intilishida namoyon bo'ladi. Bolalar yangi bilimlarni egallashi uchun tarbiyachi kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi va turli xil savollar, mustaqil izlanishlar olib borishi maqsadga muvofiq sanaladi. Qiziqishning katta sababi, kuchi va uning shaxsga ta'siri haqidagi g'oyalarni mashhur rus pedagogi

V.P.Vaxterov o‘z asarlarida ilgari surgan. Bilim olish va uni amalda qo‘llash faoliyati alohida vaqt talab etadi [3]. Bilim olishga qiziqish deganda, ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar, bilim olish jarayonida shaxsning tanlab, biror yo‘nalishga intilishini, tanlab degani, u yoki bu fan sohasiga, yo‘nalishga qiziqishligida namoyon bo‘ladigan xarakterni tushunadilar (S.L.Rubinshteyn). Yoki odamning biror-bir narsaga diqqatini qaratishini, biror-bir hodisa va predmetni bilishini tushunadilar (F.N.Gonobolin). G.I.Shukinaning ta’kidlashicha, bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va intilishi bu – muhim tanlanishga ega bo‘lib, bolalarni aniq maqsad va reja bilan faoliyat yuritishga, ularda kuchli his-tuyg‘uli, shaxsning atrof-olamga, uning ob’ektlariga, hodisalariga, jarayonlariga intilishlari, o‘zaro munosabatlaridan iboratdir.

Xorijiy davlatlar ilg‘or tajribasining tahlili zamonaviy mактабгача та’лим muassasalarida mактабгача yoshdagi bolalarni bilish qobiliyatini rivojlantirish uchun alohida shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma’naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, mактабгача yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga e’tibor qaratilganligini belgilaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan mактабгача та’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, mактабгача та’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog xodimlar bilan ta’minalash, mактабгача та’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’limtarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni bilishga bo‘lgan qiziqishi va har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlanishi bilan birga ularni mактабга tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrdagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O‘zbekiston ta’lim sohasi uchun ham ta’limni zamon talablariga muvofiqlashtirish, yangilash asri sanaladi. Zamonaviy ta’lim sistemasining asosiy maqsadi, bilim oluvchilarni, yoshlarni nafaqat bilimlar bilan quollantirish, shu bilan bir qatorda bolalarda yoshligidan boshlab zamonaviy bilimlarni egallahda, ijobiy va mustaqil yondashishni shakllantirish, ularning mustaqil bilim olish malakalarini, qibiliyatlarini keng ma’noda ochish uchun sharoit, qulayliklar yaratishdan iboratdir. Qo‘yilgan maqsadga erishishning asosiy yo‘nalishlaridan biri, bu o‘z navbatida, ularni bilim olishga bo‘lgan qiziqishining rivojlanish darajasini oshirishni talab

qiladi. Bilim olishga qiziqish shaxsning muqim ta'lim olish jarayonidir. Bilim olishga bo'lgan his-tuyg'ularni uyg'otish motivi turli xil bo'lishi mumkin. Ammo, bilim olishga bo'lgan hamma motivlar ichida eng haqiqatga yaqini bu – bolalarning biror voqealikka, narsaga bo'lgan qiziqishidir. Bolalarda biror narsaga bo'lgan qiziqish boshqalarga nisbatan ancha erta uyg'onadi. Bilish bu – katta kuch, g'ayrat, iroda, qunt talab qiluvchi mehnatdir. Shuning uchun bolalarda asta-sekinlik bilan, ularni qiziqishini hisobga olib, so'ndirmasdan, ularda irodani, qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tish uchun zarur bo'lgan ilm-zakovatni, o'zlarining burchlariga vazifalariga bo'lgan javobgarlikni, vataniga bo'lgan sadoqatni o'zlashtirib olishni shakllantirish talab qilinadi. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr bilish ehtiyojlarining rivojlanishi davridir. Inson hayotida maktabgacha yosh muhim davr hisoblanadi. Bu davr kelajakka poydevor qo'yadi, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ruhiy rivojlanishida ilk bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu bilim ehtiyojlarini rivojlantirish har bir bolalar uchun turlicha farqlanadi. Buning uchun, bo'lajak tarbiyachi va pedagog xodimlarni professional darajada tayyorlash ko'لامи kengaytirish, ularni kasbiy kompetentligini rivojlantirish, chuqur nazariy bilimlar, yuksak malaka va amaliy mahorat bilan qurollanishini taqozo etadi. Ayniqsa, bugungi kunda maktabgacha ta'lim yo'nalishi sohasi jamiyat ehtiyojiga mos masalalar bo'yicha maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'nan va jismonan sog'lom qilib shakllantirish, ularni mактаб hayotiga to'g'ri yo'naltirish dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Chunki sog'lom ong bolalarning yetuk va yorqin g'oyalar bilan qurollanishini anglatadi, ularning yetuk dunyoqarashga ega bo'lish asoslarini ijtimoiy qiziqish, mustaqil fikrlash va tashabbuskor bo'lish tashkil qiladi, fazilatli shaxs bo'lish esa bolalarning vatanparvarlik, insonparvarlik kabi axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishidan iborat. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi va axloqini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli bu ko'nikmalarni shaxsda yoshlik davridan ya'ni maktabgacha yoshidan boshlab shakllantirish ijtimoiy, pedagogik va psixologik ehtiyoj hisoblanadi.

Hozirgi davrdagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O'zbekiston ta'lim sohasi uchun ham ta'limni zamon talablariga muvofiqlashtirish, yangilash asri sanaladi. Zamonaviy ta'lim sistemasining asosiy maqsadi, bilim oluvchilarni, yoshlarni nafaqat bilimlar bilan qurollantirish, shu bilan bir qatorda bolalarda yoshligidan boshlab zamonaviy bilimlarni egallahda, ijobiy va mustaqil yondashishni shakllantirish, ularning mustaqil bilim olish malakalarini, qobiliyatlarini keng ma'noda ochish uchun sharoit, qulayliklar yaratishdan iboratdir. Qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri, bu o'z navbatida, ularni bilim olishga bo'lgan qiziqishining rivojlanish darajasini oshirishni talab

qiladi. Bilim olishga qiziqish shaxsning muqim ta'lim olish jarayonidir. Bilim olishga bo'lgan his-tuyg'ularni uyg'otish motivi turli xil bo'lishi mumkin. Ammo, bilim olishga bo'lgan hamma motivlar ichida eng haqiqatga yaqini bu – bolalarning biror voqealikka, narsaga bo'lgan qiziqishidir. Bolalarda biror narsaga bo'lgan qiziqish boshqalarga nisbatan ancha erta uyg'onadi. Bilish bu – katta kuch, g'ayrat, iroda, qunt talab qiluvchi mehnatdir. Shuning uchun bolalarda asta-sekinlik bilan, ularni qiziqishini hisobga olib, so'ndirmasdan, ularda irodani, qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tish uchun zarur bo'lgan ilm-zakovatni, o'zlarining burchlariga vazifalariga bo'lgan javobgarlikni, vataniga bo'lgan sadoqatni o'zlashtirib olishni shakllantirish talab qilinadi. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr bilish ehtiyojlarining rivojlanishi davridir. Inson hayotida maktabgacha yosh muhim davr hisoblanadi. Bu davr kelajakka poydevor qo'yadi, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ruhiy rivojlanishida ilk bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq, kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, bu bilim ehtiyojlarini rivojlanish har bir bolalar uchun turlicha farqlanadi. Ayrimlarida, u juda aniq ifoda etadi. Boshqalarda esa, u, amaliy faoliyat bilan ko'proq ko'rsatilib olib borilishi kerak. Demak, bu farq, birinchi navbatda, olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning ahamiyati va zaruriyati bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning, qiziqishlari, bilimi va intilishini quyidagi savollar tariqasida aniqlash mumkin. Masalan, "Nima uchun?", "Bu nima?", shuningdek, "Qachon?" va "Qaerga?", "Qanday" savollar orqali bilimini rivojlanishga erishish mumkin.

N.Poddyakov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagagi bolalarni tajriba qilishga, yangi kashfiyotlar haaqida fikr yuritish imkoniyatidan mahrum qilish, maktabgacha yoshdagagi mustaqil faoliyatga doimiy cheklovlar qo'yish, hayot uchun davom etadigan jiddiy, ruhiy kasalliklarga olib keladi, bolaning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlanishiga, kelajakda o'rganish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. N.N.Poddyakovning fikriga ko'ra, tajriba bolalarda yetakchi faoliyat hisoblanadi [4]. Xulosa shuki, muassasa rahbarlari shu kabi holatlarga befarq bo'lmasligi, farzand tarbiyalashda, ularning bilim va motivatsiyalarini oshirishning turli usullarini tanlashga va tadbiq etishga to'g'ri ko'rsatmalar berishi maqsadga muvofiq sanaladi. Mazkur jarayonda qo'llaniladigan usullarning har biri, tarbiya uslubiga qarab, turli xil natijalarga ega, ularning har birida ijobjiy va salbiy tomonlar mavjud, ammo, eng muhimi, bu bizni hayot davomida o'zini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3955-sonli qarori.
- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha

ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kotsepsiysi. 08.05.2019y. PQ-4312. 3. V.P.Vaxterov, E.O.Vaxterov. Mir v rasskazax dlya detey. Xrestomatiya. 4. N.N.Poddyakov. Razvitie myshleniya i umstvennoe vospitanie doshkolnika. -M., 1985. 5. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Qayumova, M.A'zamova. Makkabgacha pedagogika. Darslik. -T., 2018.